

INTERTEKSTUALLIK VA PRESEDENT OBRAZLAR

Axmedova Aziza Komilovna,
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,
Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasida katta
o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

eternalworldlanguages@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14205218>

Annotatsiya. Maqola filologiyaning muhim tushunchalaridan biri intertekstuallikning badiiy obrazlardagi ifodasini o'rganishga bag'ishlangan. Amerikalik romannavis Sinkler Lyuis (1885-1951) qahramonlari misolida presedent va resepiyent obraz munosabatlari intertekstuallik kesimida tahlil qilingan. Bunday yondashuv badiiy obrazlar haqida keng tahlil imkoniyatlarini berishi bilan birgalikda, muayyan yozuvchi mahoratini, originalligini va ijodiy imkoniyatlarini baholashga xizmat qilishi dalillangan.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, badiiy obraz, presedent obraz, resepiyent obraz, adabiy aloqalar.

Abstract. The article is dedicated to studying the expression of intertextuality — one of the important concepts in philology — in literary characters. It analyzes precedent and recipient character relations through intertextuality, using the example of American novelist Sinclair Lewis's (1885-1951) characters. This approach provides broad analytical opportunities for examining literary characters and evaluates a particular writer's skill, originality, and creative potential.

Keywords: intertextuality, literary character, precedent character, recipient character, literary relations.

Ijodkorning badiiy mahoratini vorisiylik va novatorlik kontekstida intertekstual tahlil asosida amalga oshirish yozuvchining obraz yaratish mahoratini, ijodiy fantaziyasining kengligini, originalligini baholash uchun samarali metod. Badiiy obrazlarni mazkur badiiy mezonlar orqali, presedent-resepiyent obraz munosabatlari kesimida o'rganish ijodkorning poetik mahoratini yuzaga chiqarishda hamda matndan-matnga ko'chgan qahramonlar qiyofasidagi badiiy transformatsiyani aniqlash imkoniyatini beradi.

Intertekstuallik **keng** (adabiyotshunoslikda) hamda **tor** (tilshunoslikda) ma'nolarda tushuniladi [1]. “Keng ma'noda intertekstuallik allaqachon mavjud bo'lgan matnlar korpusiga nisbatan matn aloqalarining ochiqligi va xayrihohlik sifatida tushuniladi” [2.] deb ta'rif beradi tadqiqotchi A.V.Stepanova. G.Allenning ham matnlar intertekstualligi haqidagi fikri diqqatga sazovor: “Barcha matnlar ko'pma'noli, qayishqoq, kitobxonning taxminlariga ochiq bo'lib aniq chegaraga ega

emas. Matnlar jamiyatda mavjud bo'lgan dialogig "ovozlarni ifoda etishga yoki aksincha, bostirishda ishtirok etadi"[3]. Demak, intertekstual aloqalarni tadqiq etish matndagi ma'no qatlamlarining chuqurroq sathlariga yetib borish, zohirda turgan ma'nolarning tub, botiniy mazmunini anglash imkonini beradi.

Ijodkor uchun biror asarni yaratishida manba bo'lib xizmat qilgan boshqa asar tilshunoslar tomonidan turlicha nomlanadi: presedent matn (Karaulov Yu.N.), arxitekst, asl matn, manba-tekst, genotekst, pratekst, prototekst, pretekst, predtekst (Gudkova D.B., Stepanova A.V.). D.B.Gudkovning tasnifiga ko'ra manba bo'lgan matn, ya'ni predtekst quyidagicha namoyon bo'ladi:

- 1). presedent nutq orqali (tsitata, asar nomi, matnga to'liq taqlid);
- 2) presedent voqea (vaziyat) orqali;
- 3). presedent ism orqali (ism, **personaj**, tarixiy shaxs) [4].

Demak, matnlar orasidagi aloqa *personaj orqali* ham namoyon bo'ladi. Bunda muayyan asardagi obrazning **presedent obraz** bilan aloqasini tasdiqlashda ikki qahramon o'rtasidagi o'xshashlik, ijodkorga ta'sir qilgan adib, ta'sir aloqalarini tasdiqlaydigan adabiy-tanqidiy va ilmiy-biografik ishlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Mazkur maqolada Sinkler Lyuis yaratgan adabiy qahramonlar va ularga presedent obrazlarning intertekstual aloqalari tahlilga tortiladi.

Tadqiqotchi olim A.Coleman Sinkler Lyuisning "The Job" romanini Hamlin Garlandning "Rose of Dutcher's Coolly" (1895 y.) asariga qiyoslaydi hamda qator mushtarakliklarni aniqlagan [5]. Masalan, har ikki romanda "yangi" ayol obrazi va jamiyatning eskirayotgan tartib-qoidalari o'rtasidagi ziddiyat tasvirlangan. S.Lyuis ham Garland kabi ayollar uchun kasbiy va oilaviy hayotning muvozanati, turmushga chiqqandan keyin ham ayollarning kasbiy o'sishiga rag'batlantirish g'oyalarini qo'llab quvvatlaydi. Asarlar syujeti ham o'xshash bo'lib, har ikki qahramon katta shaharda omadini sinamoqchi bo'lgan sodda biroq intiluvchan qizlar. Aytish joizki, asarlar o'rtasidagi qator mushtarakliklarga qaramasdan, Garlandning qahramoni sentimental, an'anaviy ayol obrazi bo'lib, unda Yangi ayollarga xos ichki va tashqi xususiyatlar Una Golden obrazidagidek tiniq ifoda etilmagan. Kapitalistik patriarxal jamiyatda, erkaklarga ham shavqatsiz bo'lgan biznes olamida o'z o'rniga ega bo'lish uchun kurashgan Una Golden amerika adabiyotida ilk "career woman" (tadbirkor ayol) obrazi bo'ldi. "Job" romani ofisda ishlaydigan ayollar haqidagi ilk to'laqonli roman" deya xulosa qiladi D.Simkins maqolasida [6]. S.Lyuisning "Job" romani nashr bo'lgunga qadar ham feminist ayollar obrazi, masalan, Genri Jeymsning "The

Bostonians” romanida, yoki epizodik ko’rinishda O.Genri hikoyalarida bo’lgan, biroq aynan “Job” romani Yangi Ayol obrazini to’laqonli xarakter sifatida aks ettirgan. Ayol yozuvchilardan esa, Mary Austin, Ellen Glasgow and Willa Cather qator romanlari bilan mashhur bo’lganlar. Ular ham ayol qahramon obrazi bo’lgan asarlar yaratganlar. Biroq ularning qahramonlari ham aksariyat hollarda an’anaviy fikrlovchi ayol obrazlar sifatida talqin etilganlar. Una haqida Taylor shunday yozadi: “Una Golden's relationship to work is always energetic, aggressive and defined by her own terms. She is a very modern and engaging heroine indeed”[7] (“Unaning ishga munosabati har doim kuchli, faol va o’zining shartlariga asoslangan. U chindanda juda zamonaviy va qiziqarli qahramon.”).

Shuningdek, Enn Vikers (“Ann Vickers”, 1933) obrazi va Gerbert Uelsning “Enn Veronika” (“Ann Veronica”, 1909 y.) obrazi o’rtasidagi o’xshashliklar haqida qator ilmiy ishlarda ma’lumot berilgan. Qahramonlar o’rtasidagi asosiy mushtaraklik shundaki, har ikkala qahramon suffrajist bo’lib, ikki asarda ham qahramonning qamoqda saqlanishi epizodlari mavjud. Shuningdek, har ikki qahramon o’z davri uchun yangi ayol qiyofasida gavdalanirtilgan. Biroq, Uelsdan farqli ravishda S.Lyuis ayol qahramon obrazi orqali suffrajistlar hayotini ko’rsatibgina qolmay, umuman feminizm ayollar harakati uchun muhim bo’lgan qator falsafiy qarashlarini badiiy ifodalagan. Anglashiladiki, Lyuis Gerbert Uelsdan olgan adabiy ta’sirini go’yaviv-ijodiy jihatdan takomillashtirganligini bir obraz qiyofasida ko’rish mumkin.

Styuatr Sherman, Harry Levin, Linda Frank kabi olimlar Sinkler Lyuisning Kerol Kennikot (“Main Street”, 1920) obrazini Emma Bovariga (Gyustav Flober, “Bovari xonim”, 1857) mengzaganlar [8]. Darhaqiqat, Kerol obrazi bilan Bovari o’rtasida o’xshashliklar talaygina hamda mazkur obrazni Kerol uchun presedent obraz desak adashmaymiz. Emma Bovari kabi Kerol ham o’zi yashayotgan muhitni isloh qilishga qiziqadi, shu bilan birgalikda o’zlikni anglash, o’z qiziqishlarini ro’yobga chiqarishga intilish xususiyati ham ikki qahramonni o’xshash xususiyatladidir. Har ikki qahramon uchun turmush qurish romantik sarguzasht bo’lib tuyuladi, zero, Emma ham, Kerol ham rafiqlik rolini aynan shunday tushunadilar. Biroq turmushning kulrang realligi ularga Uil va Sharl oliyjanob shahzoda emasligini har tomonlama isbotlaydi. Biroq shuni etiborga olish kerakki, Kerolning romantik munosabatlarga (Guy Pollock, Eric Valborg) intilishi hech qachon xiyonatga aylanmaydi. Bu jihatdan Kerol Bovaridan ancha farqli obraz. Leongardning [9] fikricha, Flober Emmaning obrazida gipomaniakal avanturist shaxs psixotipini

gavdalantirgan. Buni Emmaning turli sarguzashtlarida, xilma-xil vaziyatlarga tushib qolishida kuzatish mumkin. Sinkler Lyuis esa, fikrimizcha, qahramoniga garchi, Emma obrazining avantyurizmidan ulgi olgan bo'lsada, boshqa qahramonlarida aks etgani kabi muallif inrtoversiyasi Kerol obrazida ham o'z izini qoldirgan.

Demak, Sinkler Lyuisning badiiy mahorati jahon adabiyoti konteksidan badiiy ozuqa olib shakllangan bo'lib, mazkur maqolada uning protagonistlari jahon adabiyotining boshqa asarlari qahramonlari bilan qiyosan tahlil qilingan, obrazlar o'rtasidagi intertekstual aloqalar o'rganilgan. Adabiy ta'sir aloqalari bo'lishidan qat'iy nazar, Lyuisning qahramonlari badiiy konsepsiya, badiiy psixologizm, xarakter evolutsiyasi va mantiqi nuqtai nazaridan yangi va original obrazlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova A.K. Obraz yaratish mahorati intertekstual aloqalar kesimida. Ilm sarchashmalari, ilmiy-nazariy, metodik jurnal 2023, 9-son. – B.61–65
2. Степанова А.В. Интертекстуальная природа образа и образности: на материале образных сравнительных конструкций английской и американской литературы 19 и 20 вв. Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2006. – 212 с.
3. Allen, G. (2006). Intertextuality. London: Routledge. – P.209.
4. Гудков, Д.Б. Прецедентные феномены в языковом сознании и межкультурной коммуникации Текст.: автореф. дис.док.филол. наук / Д.Б. Гудков. М., 1999. – 42 с.
5. Coleman A.B. The Genesis of Social Ideas in Sinclair Lewis. New York University, 1953. PhD Thesis. – 253 p.
6. Simpkins D. Sinclair Lewis: Suffragent. Minnesota History. 2015-16. – P. 330-336.
7. Taylor J.N. The Struggle for Work and Love: Working Women in American Novels, 1890-1925, University of California, Berkeley. PhD. Thesis. – P. 62.
8. Axmedova A.K. "Main Street"- bovaristik roman. Filologiya fanlarini o'qitishning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya meteriallari. – Qo'qon, 2024.
9. Леонгард К. Акцентированные личности. К.: Выща шк. Головное изд-во, 1989. – 375 с.